"Özkimyosanoat" AJ tizimida yoş işçi-xodimlarni qöllab-quvvatlaş: bandlik, ta’lim va kasbiy rivojlaniş

// 12 November 2026 yil
https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/oezkimyosanoat-aj-tizimida-yos-isci-xodimlarni-qoellab-quva



Kimyo sanoatida malakali yoş kadrlarni tayyorlaş, ularning bandligini ta’minlaş va kasbiy salohiyatini rivojlantiriş «Özkimyosanoat» AJ faoliyatining muhim yönalişlaridan biri hisoblanadi. Jamiyat va tizim korxonalarida bu borada yoşlarni iş bilan ta’minlaş, ta’lim olişiga kömaklaşiş, taşabbuslarini rağbatlantiriş hamda jamoatçilik faolligini oşirişga qaratilgan işlar olib borilmoqda.

2026-yilda yoşlar bilan işlaş böyiça 41 banddan iborat dastur tasdiqlandi. U Yoşlar işlari agentligi bilan hamkorlikda işlab çiqildi. Dastur doirasida yil boşidan buyon 282 ta tadbir ötkazildi. Şundan 143 tasi madaniy-ma’rifiy, 67 tasi sport-soğlomlaştiriş, 72 tasi esa intellektual va innovatsion yönalişlarga töğri

keladi.
Yoş mutaxassislarning innovatsion ğoyalarini qöllab-quvvatlaş maqsadida «Yoşlar oyligi» doirasida forum taşkil etildi. Unda ötkazilgan «Eng yaxşi innovatsion ğoya va startap loyiha» xakaton-tanlovida 120 nafar iştirokçi öz loyihalarini taqdim etdi. Şuningdek, stol tennisi va «Zakovat» intellektual öyini böyiça «Özkimyosanoat kubogi» musobaqalari ötkazildi. Ğolib va faol iştirokçilar qimmatbaho sovğalar bilan taqdirlandi.

Yoşlarning sport va madaniy tadbirlardagi iştiroki «Mustaqillik kubogi» spartakiadasi hamda «Mustaqillik töyi» festivali doirasida ham ta'minlandi. Spartakiadada mini-futbol, voleybol, gandbol, basketbol va stol tennisi böyiça erkaklar hamda ayollar örtasida musobaqalar taşkil etildi. Tizim korxonalari jamoalari iştirokidagi bellaşuvlar ğoliblari kubok va sovğalar bilan taqdirlandi. Festival doirasida esa intellektual öyinlar, madaniy-ma'rifiy tadbirlar va uçraşuvlar ötkazildi.

Yoşlar bilan işlaşda rahbariyat va xodimlar örtasidagi bevosita muloqotga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jamiyat va tizim korxonalarida rahbarning yoşlar masalalari böyiça maslahatçisi lavozimi joriy etilgan. Uning boşqaruv maqomi rahbar örinbosari darajasiga tenglaştirilgan.
2026-yilda «Özkimyosanoat» AJ Boşqaruv raisi iştirokida 8 marotaba «Rahbar va yoşlar» uçraşuvi ötkazildi. Muloqotlar «Maxam-Çirçiq», «Navoiyazot» va «Ammofos-Maxam» korxonalarida, yoş mutaxassislar forumi doirasida hamda işsiz yoşlar iştirokida taşkil etildi. Şuningdek, D.I. Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universitetining Toşkent şahridagi filiali, Toşkent kimyo-texnologiya instituti va Yangi Özbekiston universiteti talabalari bilan uçraşuvlar bölib ötdi. Ularda yoşlarning bandligi, ta'lim olişi, kasbiy rivojlanişi va işlab çiqarişga oid takliflari muhokama qilindi.

Işsiz yoşlarni qöllab-quvvatlaş böyiça aniq natijalarga erişildi. Toşkent viloyati Quyiçirçiq tumanidagi «Paxtaçi» mahallasida yaşovçi 21 nafar işsiz yoş «Özkimyosanoat» AJga biriktirildi. Ularning har biri bilan individual iş olib borildi. Natijada 14 nafar yoş doimiy işga joylaştirildi, 2 nafari kasb-hunarga öqitildi, 1 nafari xorijda mehnat faoliyatini boşlaş uçun yöl oldi. Yana 1 nafariga tadbirkorlik faoliyatini yölga qöyiş uçun kredit rasmiylaştirişda yordam berildi. Zamonaviy kasblar va axborot texnologiyalariga qiziqqan 3 nafar yoşga noutbuk, mustaqil daromad topişi uçun 3 nafariga skuter, qişloq xöjaligi bilan şuğullaniş istagidagi 1 nafariga motokultivator topşirildi. Şu tariqa, mahalladagi 21 nafar yoşning barçasi işsizlar toifasidan çiqarildi. Belgilangan vazifalar ijrosi 100 foizni taşkil etdi.

Yoş mutaxassislarning kasbiy malakasini oşiriş va ta'lim olişi uçun ham resurslar yönaltirilmoqda. 2026-yilda tizim korxonalaridagi 3 040 nafar xodimning, jumladan, 1 100 nafar yoş mutaxassisning malakasini oşiriş rejalaştirilgan. Bu maqsadlar uçun 4 milliard sömdan ortiq mablağ ajratiş közda tutilgan.
Oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik doirasida 674 nafar mutaxassis tayyorlanmoqda. Ularning 650 nafari D.I. Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universitetining Toşkent şahridagi filialida, 6 nafari Özbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boşqaruvi akademiyasi magistraturasida, 18 nafari esa boşqa ta'lim muassasalarida tahsil olmoqda.

Xalqaro ta'lim va ilmiy hamkorlik doirasida Koreya-Özbekiston ilmiy-tadqiqot va loyiha instituti hamda Kimyo texnologiya innovatsiya markazini taşkil etiş investitsiya loyihasi böyiça 10 nafar doktorant va 3 nafar magistrant tayyorlanmoqda. «El-yurt umidi» jamğarmasi orqali yana 2 nafar mutaxassis AQŞning Arizona universitetida kimyo va biokimyo yönalişlarida ta'lim olmoqda.

Talabalarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan mustahkamlaş maqsadida tizim korxonalarida 709 nafar talabaning işlab çiqariş amaliyoti taşkil etildi. Ularning 445 nafari oliy, 264 nafari professional ta'lim muassasalari talabalaridir.
Şuningdek, tizim korxonalarining 6 nafar xodimi Yoşlar işlari agentligi huzuridagi Yoşlar muammolarini

örganiş va istiqbolli kadrlarni tayyorlaş instituti hamda Davlat siyosati va boşqaruvi akademiyasi hamkorligida taşkil etilgan tört oylik qayta tayyorlaş kurslarida tahsil oldi.

Yangi investitsiya loyihalari doirasida yoşlar uçun qöşimça iş örinlari yaratiş ham belgilangan. 2026-yilda kimyo sanoatida amalga oşirilişi rejalaştirilgan 10 ta loyiha hisobidan jami 730 ta yangi iş örni taşkil etilişi közda tutilgan. Ularning 250–280 tasiga 30 yoşgaça bölgan mutaxassislarni jalb qiliş rejalaştirilgan.

Umuman, «Özkimyosanoat» AJ tizimida yoşlar bilan işlaş faqat tadbirlar taşkil etiş bilan çeklanmayapti. Işsiz yoşlarni band qiliş, kasbiy ta’lim va malaka oşiriş, talabalarning işlab çiqariş amaliyotini taşkil etiş hamda yangi iş örinlariga jalb qiliş böyiça aniq mexanizmlar işga solingan. Bu işlar yoş kadrlarning kimyo sanoatidagi iştirokini kengaytiriş va tarmoq uçun malakali mutaxassislar zaxirasini şakllantirişga qaratilga